

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

**GLOBALLASHUV SHAROITDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MAFKURAVIY
IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH
MASALALARI**

Jaynarov Nodir Fozilovich.

O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining keskin va shiddat bilan rivojlanib borayotganligi hamda uning inson ongiga yuqori darajada salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligi yoritilgan, shu bilan birga axborot xurujlari qarshi yo'naltirilgan chora tadbirlarning asosiy maqsadi, ushbu axborot hurujlaridan kelajak avlodni ongini zaharlanishini o'z vaqtida oldini olish hamda ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirish va shaxsiy fikrga ega bo'lishi, internet orqali berilayotgan noto'g'ri va yolg'on xabarlarga ishonib aldanib qolmaslik.

Kalit so'zlar: global, axborot, kelajak, inson.

Аннотация: В данной статье освещается бурное развитие и коммуникационных технологий в условиях современной глобализации и её крайне негативное воздействие на человеческое сознание, при этом основной целью мер против информационных атак является предотвращение отравления этой информацией будущего поколения. Атаки, вовремя предотвращать их и направлять на правильных путь и иметь личное мнение, чтобы не быть обманутым ложной и ложной информацией, предоставленной в интернете.

Ключевые слова: глобальное, информация, будущее, человек.

Annotation: This article highlights the rapid development and growth of information communication technologies in the globalization conditions and their highly negative impact on the human mind, while the main goal of counter measures against information attacks is to prevent the future generation from being poisoned by these information attacks. Prevent them in time and guide them to the right path and have a personal opinion, not to be deceived by false and false information given on the internet.

Key words: global, information, future, human.

O'tgan asrning o'rtalarida insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida qaralgan axborot texnologiyalarining rivojlanishi, axborot almashinuvining yangi ko'rinishlarining vujudga kelishi ko'plab axborotlarning tarqalishiga zamin yaratdi.

Aynan mazkur davrlardan boshlab mutaxassislar tomonidan "axborot xuruji", "axborot uchun kurash" tushunchalari qo'llanila boshlandi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli XXI asrning boshiga kelib, yangi zahiralar, boyliklar uchun kurash umuman yangi shaklda namoyon bo'la boshladi. Endilikda biron-bir davlatni zabt etish uchun qurol-aslaha, katta qo'shin talab etilmaydi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Axborotdan vayronakor qurol sifatida foydalanish maqsadida ayrim yetakchi davlatlar o‘zga mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish maqsadida g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Aynan, bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlarning tobora avj olish oqibatida mafkuraviy ta’sir o‘tkazish nihoyatda o‘tkir qurolga aylanishi natijasida turli xil siyosiy kuchlar o‘z manfaatlar va maqsadlari yo‘lida foydalanishga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Zero, har qanday axborot hurujlari bevosita axborot qurollari orqali amalga oshiriladi. Bu haqda Rus olimi D.Lavsovning fikricha, “axborot qurollari deganda muayyan xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini, davlatning informatsion-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalar tizimi tushuniladi”. Binobarin, axborot xurujining tahlikali shakli kishilar ongiga g‘oyaviy va mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga urinishdir.

Shu o‘rinda, axborot xuruji – muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitedagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun unga ma’naviy, moddiy, ruhiy ta’sir o‘tkazishning noan’anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish tushunchasini anglatadi.

Bugungi kunga kelib, dunyoning yirik davlatlaridagi “ayrim” siyosiy markazlar axborot xurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishiga intilmoqda.

Bu haqda ingliz siyosiy arbobi U.Cherchill: “Kim axborotga ega bo‘lsa, dunyoga ham egalik qiladi”, deya ta’kidlagan edi. U.Cherchillning fikriga ko‘ra, ayrim yetakchi davlatlar muayyan mamlakatdagi hukumat boshqaruvi, davlat to‘g‘risida xolisona fikrlarni amalda mavjud emasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surishga intilayotganligini ta’kidlaydi.

O‘z navbatida mavjud boshqaruv tizimiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini amalga oshirish uchun mahalliy aholi vakillarini ongini chalg‘itishda ularning ongi va psixologiyasini o‘zgartirish maqsadida aniq ma’lumotga ega bo‘lmagan axborotni tarqatishmoqda.

Binobarin, axborot xurujlari xususiyatlaridan biri shundaki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan madaniyati, qadriyatlari va uning o‘ziga xosligini barbod etish bilan bir qatorda insonlarni millat va xalq sifatida yashash xavf ostida qolishiga zamin yaratadi.

Bugungi kunda odamzod ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis - yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma’no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta’sirini doimiy sezib yashamoqda.

Shuning uchun ham bugungi kunda mafkura poligonlarining ta’siri radio, televideniya, gazeta-jurnal, internet, umuman, hamma axborot tarmoqlari orqali kirib kelmoqda. Ular odamlarni uyda ham, ko‘chada ham, ishda ham tinch qo‘ymasligi mumkin.

Yadro poligonida tayyorlangan qurol faqat muayyan hududni vayron qiladi, ammo mafkuraviy poligonlardan xabarlar, badiiy asarlar, o‘yinchoqlar, kundalik ehtiyoj mollari shaklida tarqalayotgan turli axborotlar esa insonlarning qalbi va ongini egallahga qaratilgan.

Shu o‘rinda, ayrim davlatlardagi diniy yo‘nalishdagi axborot kanallari vositasida axborot xurujlari tashkil etilmoqda. Natijada ushbu kanallarda namoyish etilayotgan davlat ahamiyatiga molik axborotlarni tarqatishni o‘zlarining dolzarb vazifalari sifatida ilgari surishmoqda.

Hozirda axborot hurujlarini ko‘zlab amalga oshirilayotgan mazkur harakatlari zamirida, ayrim rivojlangan davlatlar o‘zlarning strategik maqsadlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Eng avvalo, o‘zlar faoliyat olib borayotgan mintaqasi va hududlar miqyosida davlat va jamiyatdagi kamchiliklarni bo‘rttirib ko‘rsatishni maqsad qilishmoqda.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Shu bilan bir qatorda, missionerlik tashkilotlari tuhmat va bo'htonlar uyushtirish orqali o'zlariga raqib bo'lgan davlatining, hukumat boshqaruvida faoliyat olib borayotgan rahbarlarini ayblastir o'zlarining asosiy maqsadlari ekanligini namoyish etishmoqda.

Globallashuv jarayonida dunyodagi ayrim siyosiy kuchlarning istiqbolli rejalari zamirida, muayyan mamlakatlarga nisbatan amalga oshirilayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar bevosita mamlakat barqarorligi va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda raxna solmoqda. Zero, erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish" niqobi ostida amalga oshirilayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: qilib aytganda jamiyat xavfsizligiga raxna solish maqsadida mamlakat barqarorligiga putur yetkazishga intilayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xatarlarga qarshi doimo ogoh bo'lish har bir vatandoshimizning muqaddas burchidir.

Zero, axborot hurujlarini oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash avvalo, mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoya qilishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rayev J.J. Mafkuraviy imunitet. – T.: "Ma'naviyat", 2001.
2. Karimova V. Umarov A. Qurchonov M. "Milliy istiqlol g'oyasi xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari", – T.: "Yangi asr avlod", 2011.
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya metodologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Nashr", 2013.
4. G'oibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: "O'zbekiston" 2012.